

Izlash



[Andijon davlat chet tillari institutini tashkil etish to'g'risida](#)

[1-ILOVA
Andijon davlat chet tillari instituti faoliyatini tashkil etish bo'yicha ChORA-TADBIRLAR DASTURI](#)

[2-ILOVA
Andijon davlat chet tillari institutini 2026-yilga qadar rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari](#)

[3-ILOVA
Andijon davlat chet tillari institutida tashkil etiladigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari RO'YXATI](#)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, 31.05.2022 yildagi PQ-265-son

Kuchga kirish sanasi

01.06.2022

Qo'shimcha axborot

[Ulashish](#)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTINI TASHKIL ETISH TO'G'RSIDA

Chet tillarini o'qitish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani ta'lim tizimiga joriy qilish, chet tillarini mukammal egallagan oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish hamda xorijiy tillar bo'yicha filologlar, pedagoglar, tarjimonlar va gid hamrohlarini tayyorlash tizimini yanada kengaytirish maqsadida:

1. Andijon shahrida Andijon davlat chet tillari instituti (keyingi o'rinlarda — Institut) tashkil etilsin.

Belgilansinki, Institut yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan davlat oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimida faoliyat yuritadi.

2. Quyidagilar Institut faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib belgilansin:

xorijiy tillar sohasi bo'yicha oliy ma'lumotli, ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash;

o'quv jarayonida xalqaro baholash dasturlari (TALIS, PIRLS, PISA) va standartlaridan foydalanish, o'qitish va baholashning zamonaviy shakllari, metodlari va texnologiyalarini joriy etish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan pedagoglarni tayyorlash;

yetakchi xorijiy oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlari joriy etish va ilmiy loyihalarni amalga oshirish;

xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlarning amaldagi reytingida oliy ta'lim muassasalari orasida yuqori 1 000 talik o'rinni egallagan xorijiy oliy ta'lim muassasasining dasturi asosida o'z ta'lim dasturlarini shakllantirish, yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan mustaqil ravishda qo'shma ta'lim dasturlari va ilmiy loyihalarni joriy etish;

ta'limni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, jumladan o'quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni tatbiq qilish, shuningdek, o'quv jarayonini talabalarda mustaqil ta'lim olish va amaliy, jumladan sinxron, badiiy, ketma-ket va ilmiy-texnik tarjima ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirish;

Institutning ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirib borish, jumladan professor-o'qituvchilar stajirovkasi va malaka oshirishini nufuzli respublika va xorijiy oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida tashkil etish.

3. Quyidagilar:

Andijon davlat chet tillari instituti faoliyatini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi [1-ilovaga](#) muvofiq;

Andijon davlat chet tillari institutini 2026-yilga qadar rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari [2-ilovaga](#) muvofiq;

Andijon davlat chet tillari institutida tashkil etiladigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari ro'yxati [3-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

4. Belgilab qo'yilsinki:

a) Institutda o'quv jarayoni 2022/2023 o'quv yilidan boshlanadi hamda talabalarga ikkita xorijiy til bo'yicha kvalifikatsiya beriladi;

b) Andijon davlat universiteti va uning Pedagogika institutiga xorijiy tillar yo'nalishlarida bakalavriat va magistratura bosqichlarida kadrlar tayyorlash bo'yicha ajratiladigan davlat buyurtmasi kvotasi 2022/2023 o'quv yilidan boshlab Institutga yo'naltiriladi;

v) Institutga talabalarni qabul qilish parametrlari har yili tasdiqlanadigan respublika oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi va qo'shimcha qabul parametrlari doirasida aniqlanadi;

g) Institutning bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga 2023/2024 o'quv yilidan boshlab kirish imtihonlarida fanlar majmuasidagi chet tili fanidan 4 ta ko'nikmani (tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish) baholashga qaratilgan kasbiy (ijodiy) imtihon o'tkaziladi. Bunda:

chet tilini bilish darajasi B2 va undan yuqori milliy sertifikatga yoki unga tenglashtirilgan xalqaro tan olingan sertifikatga ega bo'lgan abituriyentlarga ushbu fandan o'qishga kirish sinovlarida imtihonsiz maksimal ball beriladi;

chet tili fanidan kasbiy (ijodiy) kirish imtihonlari Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan amalga oshiriladi;

d) Institutning magistratura mutaxassisliklariga kirishda xorijiy tilni bilish darajasi bo'yicha S1 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan xalqaro tan olingan sertifikat va bakalavriat diplom balining o'rtacha ko'rsatkichi inobatga olinadi hamda qo'shimcha imtihonlar o'tkazilmaydi;

e) Institutning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan mutaxassislik fanlaridan xorijiy tilda dars beradigan S1 darajasidan kam bo'lmagan milliy yoki unga tenglashtirilgan xalqaro tan olingan sertifikatga ega o'qituvchilariga ularning bazaviy tarif stavkasiga nisbatan har oylik 50 foiz miqdorida qo'shimcha ustama haqi to'lab borilishi mumkin.

5. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi:

a) 2022-yil 1-iyulga qadar Institutni tanlov asosida amaliy tajriba va (yoki) ilmiy darajaga ega bo'lgan yuqori malakali professor-o'qituvchilar bilan to'ldirish choralarini ko'rsin;

b) 2023/2024 o'quv yilidan boshlab Institutning xorijiy tillar o'qituvchilari S1 darajasidan kam bo'lmagan milliy yoki unga tenglashtirilgan xalqaro tan olingan sertifikatga ega bo'lishini hamda dars mashg'ulotlarini tegishli tillarda olib borilishini ta'minlasin;

v) 2024/2025 o'quv yilidan boshlab:

Institutning mutaxassislik fanlar (xorijiy tildan tashqari) o'qituvchilarining B2 darajadan kam bo'lmagan milliy yoki unga tenglashtirilgan xalqaro tan olingan sertifikatga ega bo'lishini;

Institutning o'quv jarayoniga til egasi bo'lgan malakali xorijiy mutaxassislarni jalb qilinishini tashkillashtirsin. Bunda, xorijiy mutaxassislarning oylik ish haqi bozor konyunkturasi asosida aniqlanadi hamda Institutning budjetdan tashqari mablag'lari va Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan moliyalashtiriladi;

g) Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda 2022-yil 1-sentabrga qadar Institutni zarur telekommunikatsiya vositalari bilan jihozlash hamda yuqori tezlikdagi Internet tarmog'iga ulash choralarini ko'rsin.

6. Andijon viloyati hokimligi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda Institut talabalarini amaliyot o'tash uchun hududdagi korxonalar, turizm va madaniy meros obyektlari, ta'lim va boshqa tashkilotlarga birlashtirish hamda yuqori kurs talabalarini ish haqi to'lanadigan tizim orqali band qilish choralarini ko'rsin.

7. Innovatsion rivojlanish vazirligi filologiya fanlari tarmog'ining tegishli ixtisosliklari bo'yicha yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib, 2023-yildan boshlab Institutga doktorantura bo'yicha kvota ajratilishini ta'minlasin.

8. Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi quyidagi yo'nalishlarda Institutga yaqindan ko'maklashsin:

xorijlik ekspertlarni jalb etgan holda professor-o'qituvchilar va mutaxassislar uchun malaka oshirish, jumladan sinxron tarjima qilish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha kurslarni tashkil qilishda;

professor-o'qituvchilarning zamonaviy o'qitish ko'nikmalarini rivojlantirishda va chet tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha sertifikat olishida;

Institutning bo'sh auditoriyalarida xorijiy tillarni o'qitish kurslarini tashkil etib, talabalarga qo'shimcha daromad topishlari uchun zarur sharoit yaratishda;

aholi va ta'lim muassasalari uchun chet tillarini o'rganishda ko'mak beruvchi kontentlarni shartnoma asosida yaratishda.

9. Belgilansinki:

Institut faoliyati Davlat budjeti mablag'lari, to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushadigan mablag'lar, xo'jalik faoliyati va shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatishdan tushadigan tushumlar, homiylik xayriyalari va grantlar hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi;

Institutning boshlang'ich faoliyatini samarali tashkil etish, xususan uning bino va inshootlarini ta'mirlash hamda jihozlash ishlari Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan amalga oshiriladi;

mazkur qarorni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish 2022-yilda O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchi sifatida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga ajratilgan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi, 2023-yildan boshlab — Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutiladi.

10. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Andijon viloyati hokimligining quyidagi bino va inshootlarni tegishli hududi bilan birgalikda Institutga operativ boshqaruv huquqi asosida bepul berish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin:

Andijon shahar, Boburshoh ko'chasi, 5-uy manzilida joylashgan Andijon davlat universitetining o'quv binolarini;

Andijon shahar, Boburshoh ko'chasi, 20-uy manzilida joylashgan Andijon davlat universitetining talabalar turar joyini;

Andijon davlat universitetining Andijon viloyati, Xonobod shahri, "Kampirrovot" MFY hududida joylashgan dam olish maskanini.

11. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlariga asosan Institutning bino va inshootlarini rekonstruksiya qilish, yangi o'quv binosi va talabalar turar joyini qurish hamda ularni jihozlash loyihalarini O'zbekiston Respublikasining 2023-yil va kelgusi yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturiga belgilangan tartibda kiritilishini ta'minlasin.

12. Andijon viloyati hokimligi Institut faoliyatini samarali tashkil etish uchun boshqa hududlardan jalb etilgan professor-o'qituvchilarni uy-joy bilan ta'minlash maqsadida Institutga yaqin

[Andijon davlat chet tillari institutini tashkil etish to'g'risida](#)

[1-ILOVA
Andijon davlat chet tillari instituti faoliyatini tashkil etish bo'yicha ChORA-TADBIRLAR DASTURI](#)

[2-ILOVA
Andijon davlat chet tillari institutini 2026-yilga qadar rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari](#)

[3-ILOVA
Andijon davlat chet tillari institutida tashkil etiladigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari RO'YXATI](#)

hududda joylashgan ko'p qavatli uy-joylardan xizmat uylarini Institutga tekin foydalanish huquqi asosida ajratsin.

Institutga o'zining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan boshqa hududlardan jalb etilgan professor-o'qituvchilar uchun qulay shart-sharoit yaratish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xususan ijara to'lovini kompensatsiya qilishga ruxsat etilsin.

13. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

14. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri A.X. Toshkulov hamda Andijon viloyati hokimi Sh.K. Abduraxmonov belgilansin.

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A. Abduvaxitov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2022-yil 31-may,
PQ-265-son

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2022-yil 31-maydagi
PQ-265-son qaroriga
1-ILOVA

Andijon davlat chet tillari instituti faoliyatini tashkil etish bo'yicha

CHORA-TADBIRLAR DASTURI

T/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbalari	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
I. Andijon davlat chet tillari instituti faoliyatini yo'lga qo'yish, ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish metodlarini joriy etish					
1.	Andijon davlat chet tillari instituti (keyingi o'rinlarda — Institut) faoliyatini yo'lga qo'yish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni tayyorlash.	1. Institut ustavini ishlab chiqib, tasdiqlash va belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazish. 2. Institut tuzilmasini belgilangan normativlarga muvofiq tasdiqlash.	-	2022-yil iyun 2022-yil iyul	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Institut
2.	Institutning shtat jadvali va xarajatlar smetasini tasdiqlash.	1. Institutning shtat jadvalini o'rnatilgan tartibda tasdiqlash. 2. Institutning 2022-yilga mo'ljallangan xarajatlar smetasini o'rnatilgan tartibda tasdiqlash.	-	2022-yil iyun 2022-yil iyul	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Moliya vazirligi, Institut
3.	Institutni zarur bilim va amaliy ko'nikmalarga ega kadrlar bilan to'ldirish.	1. Institutni pedagog va ilmiy xodimlar bilan to'ldirish uchun bo'sh ish o'rinlariga tanlov e'lon qilish. 2. Mutaxassisligi (kvalifikatsiyasi) mos keluvchi pedagog va ilmiy xodimlarni tanlov asosida ishga saralab olish.	-	2022/2023 o'quv yiliga qadar	Institut, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi

Andijon davlat chet tillari institutini tashkil etish to'g'risida

1-ILOVA
Andijon davlat chet tillari instituti faoliyatini tashkil etish bo'yicha CHORA-TADBIRLAR DASTURI

2-ILOVA
Andijon davlat chet tillari institutini 2026-yilga qadar rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari

3-ILOVA
Andijon davlat chet tillari institutida tashkil etiladigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari RO'YXATI

4.	Ilg'or xorijiy tajriba va kadrlar buyurtmachilari talablari asosida o'quv jarayonini tashkil etish.	<p>1. Fan dasturlari mazmunini kadrlar buyurtmachilari talablari va xorijiy tajriba asosida ishlab chiqish.</p> <p>2. Institutda mutaxassislik fanlarini tegishli xorijiy tillarda o'qitish tizimini joriy etish.</p> <p>3. O'quv rejalaridagi fanlar sonini nomutaxassislik fanlar hisobiga bosqichma-bosqich kamaytirish hamda mustaqil ta'lim salmog'ini oshirish orqali takomillashtirib borish.</p> <p>4. Bitiruvchi kurs talabalari amaliyotini kelgusida talabalar ishga joylashishi mumkin bo'lgan tashkilotlarda tashkil etish.</p>	-	<p>2022/2023 o'quv yiliga qadar</p> <p>2023/2024 o'quv yilidan boshlab</p>	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Institut
5.	Ta'lim jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or ta'lim texnologiyalari va o'qitish metodlarini joriy etish.	<p>1. Yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalarining ilg'or ta'lim metodika va texnologiyalarini o'rganish va joriy etish choralarini ko'rish.</p> <p>2. Xorijiy mutaxassislar ishtirokida ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish.</p>	-	2022-yil iyun — avgust	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Institut
6.	Institutga talabalarni qabul qilish jarayonini tashkil etish.	<p>1. Institutda bakalavriat va magistratura bosqichlarida kadrlar tayyorlash bo'yicha davlat buyurtmasini aniqlash va qabulni tashkil etish.</p> <p>2. Andijon davlat universiteti va uning Pedagogika institutida xorijiy tillar yo'nalishlari bo'yicha bakalavriat va magistratura bosqichlarida tahsil olayotgan talabalar o'qishini Institutga ko'chirish.</p>	-	<p>Har yili iyun — avgust</p> <p>2022-yil sentyabr</p>	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Institut

Andijon davlat chet tillari institutini tashkil etish to'g'risida

1-ILOVA
Andijon davlat chet tillari instituti faoliyatini tashkil etish bo'yicha ChORA-TADBIRLAR DASTURI

2-ILOVA
Andijon davlat chet tillari institutini 2026-yilga qadar rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari

3-ILOVA
Andijon davlat chet tillari institutida tashkil etiladigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari RO'YXATI

7.	Institut professor-o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirib borish.	<p>1. Mutaxassislik fanlari professor-o'qituvchilarining malakasini xorijda oshirib borish reja-jadvalini tasdiqlash.</p> <p>2. Reja-jadvalga muvofiq professor-o'qituvchilarni xorijiy oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalariga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish.</p> <p>3. Institutning belgilangan tartibda tanlovlarda g'olib bo'lgan professor-o'qituvchilarini nufuzli xorijiy oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida falsafa doktori (RhD) ilmiy darajasini olish uchun o'qishga yuborishni tashkil etish.</p>	Institutning budgetdan tashqari mablag'lari, "El-yurt umidi" jamg'armasi mablag'lari, grantlar	2022/2023 o'quv yilidan boshlab	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Institut, "El-yurt umidi" jamg'armasi
8.	Institutning professor-o'qituvchi, tadqiqotchi va talabalar uchun xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasidan bepul foydalanish imkoniyatini yaratish.	<p>1. Nufuzli ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga ega kompaniyalar bilan muzokaralar olib borish.</p> <p>2. Elektron ma'lumotlar bazalariga obunani tashkil qilish hamda ulardan professor-o'qituvchi, tadqiqotchi va talabalar uchun bepul foydalanish imkoniyatini yaratish.</p>	Institutning budgetdan tashqari mablag'lari, grantlar	2022-yil oktyabr 2023-yili yanvar	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Institut
9.	Institut talabalarining chet tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha tashqi baholash tizimini joriy etish.	<p>1. Turli yo'nalishlardan tanlab olingan bir guruh (kamida 20 nafar) yuqori kurs talabalarini milliy yoki xalqaro tan olingan sertifikat tizimlari orqali baholash.</p> <p>2. Baholash natijasi bo'yicha ta'lim jarayoni va o'quv dasturlarini takomillashtirish.</p>	Institutning budgetdan tashqari mablag'lari, grantlar	Har yili, o'quv yili davomida	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Institut

Andijon davlat chet tillari institutini tashkil etish to'g'risida

1-ILOVA
Andijon davlat chet tillari instituti faoliyatini tashkil etish bo'yicha ChORA-TADBIRLAR DASTURI

2-ILOVA
Andijon davlat chet tillari institutini 2026-yilga qadar rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari

3-ILOVA
Andijon davlat chet tillari institutida tashkil etiladigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari RO'YXATI

10.	<p>Institutning kutubxona fondini shakllantirish hamda uni zamonaviy o'quv, o'quv-metodik va ilmiy-texnik adabiyotlar bilan boyitish.</p>	<p>1. Ta'lim jarayoni va ilmiy faoliyatni amalga oshirish uchun lozim bo'ladigan adabiyotlar ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>2. Zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish, xorijiy adabiyotlarni xarid qilish va tarjima qilish, axborot-resurs markazi fondini muntazam ravishda yangilab borish.</p>	<p>Davlat budgetidan mazkur maqsad uchun ajratilgan mablag'lar, Institutning budgetdan tashqari mablag'lari, Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi, grantlar</p>	<p>2022-yil avgust</p>	<p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Institut</p>
11.	<p>Institutning ta'lim jarayoniga "Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish — NEMIS" axborot tizimini joriy etish.</p>	<p>1. Institutning akademik faoliyati, xususan, talabaning davomat hisoboti, o'zlashtirish qaydnomasi va reyting daftarchasi, guruh jurnali, dars va imtixon jadvalarini raqamlashtirish.</p> <p>2. Professor-o'qituvchilarning ilmiy loyihalari, maqolalari, ilmiy-uslubiy nashrlari, ilmiy izlanuvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish.</p> <p>3. Boshqaruv kadrlar, professor-o'qituvchilar tarkibi va talabalar to'g'risidagi ma'lumotlarni yuritish hamda tegishli hisobotlarni tayyorlash jarayonlarini raqamlashtirish.</p> <p>4. To'lov-shartnomalarni hamda stipendiya to'lovlari to'g'risidagi ma'lumotlarni elektron shaklda tizim orqali taqdim etishni yo'lga qo'yish.</p> <p>5. Institut ko'rsatkichlarining ma'lumotlar bazasini shakllantirish hamda oliy ta'lim muassasalari milliy reytingini yuritish va ta'lim sifatini masofaviy monitoring qilish imkoniyatini yaratish.</p>	<p>Institutning budgetdan tashqari mablag'lari</p>	<p>2022/2023 o'quv yili davomida</p>	<p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Institut</p>
<p align="center">II. Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish hamda yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb qilish</p>					

Andijon davlat chet tillari institutini tashkil etish to'g'risida

1-ILOVA
Andijon davlat chet tillari instituti faoliyatini tashkil etish bo'yicha ChORA-TADBIRLAR DASTURI

2-ILOVA
Andijon davlat chet tillari institutini 2026-yilga qadar rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari

3-ILOVA
Andijon davlat chet tillari institutida tashkil etiladigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari RO'YXATI

12.	Institut professor-o'qituvchilarining ilmiy salohiyatini oshirib borish hamda yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb etish.	<p>1. Institutning professor-o'qituvchilari va talabalarini ilmiy-tadqiqot ishlariga faol jalb etish.</p> <p>2. Professor-o'qituvchilar hamda yosh tadqiqotchilarning ilmiy maqolalarini Web of Science, Scopus, Google Scholar kabi xalqaro indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalarida chop etish choralarini ko'rish.</p>	Institutning budjetdan tashqari mablag'lari, grantlar	2022/2023 o'quv yilidan boshlab	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Institut
13.	"Yosh filolog" o'quv laboratoriyasini tashkil etish.	<p>1. Laboratoriya uchun xonalarni tayyorlash va jihozlash.</p> <p>2. Laboratoriya faoliyatini yo'lga qo'yish.</p>	Institutning budjetdan tashqari mablag'lari	2023-yil fevral 2023-yil mart	Institut
14.	Talabalarning ilmiy-ijodiy salohiyatini oshirib borish.	<p>1. Iqtidorli talabalarni saralab olish va ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltirish.</p> <p>2. Tajribali professor-o'qituvchilar tomonidan talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish.</p> <p>3. Ilmiy-tadqiqot ishlarida faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantirib borish.</p>	Institutning budjetdan tashqari mablag'lari	2022/2023 o'quv yilidan boshlab	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Institut
15.	Institutning ta'lim jarayonida IT-texnologiya infratuzilmasini rivojlantirish.	<p>1. Institut tarmog'ini yuqori tezlikdagi Internetga ulash.</p> <p>2. Institutning axborot-resurs markazi, o'quv binolari va talabalar turar joylarida "wi-fi" tizimi orqali Internetdan keng foydalanish imkoniyatini yaratish.</p>	Institutning budjetdan tashqari mablag'lari	2022-yil avgust 2022-yil oktyabr	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Institut
III. Institutning xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish					

Andijon davlat chet tillari institutini tashkil etish to'g'risida

1-ILOVA
Andijon davlat chet tillari instituti faoliyatini tashkil etish bo'yicha ChORA-TADBIRLAR DASTURI

2-ILOVA
Andijon davlat chet tillari institutini 2026-yilga qadar rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari

3-ILOVA
Andijon davlat chet tillari institutida tashkil etiladigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari RO'YXATI

16.	Institutning o'quv dasturlarini xalqaro tan olingan tashkilotlarning tashqi akkreditatsiyasidan o'tkazish.	<p>1. O'quv dasturlarini xalqaro tan olingan tashqi akkreditatsiyadan o'tkazish uchun hamkor tashkilot bilan aloqalarini o'rnatish.</p> <p>2. O'quv dasturlarini xalqaro tan olingan tashqi akkreditatsiyadan o'tkazish.</p>	Institutning budjetdan tashqari mablag'lari, grantlar	2022/2023 o'quv yili davomida 2025/2026 o'quv yiliga qadar	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Institut
17.	Ta'lim jarayonini tashkil etishda hamkor xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan aloqalarni rivojlantirish.	<p>1. Xorijiy hamkor oliy ta'lim muassasalari bilan mutaxassislik fanlari bo'yicha vebinarlar tashkil qilish.</p> <p>2. Yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan qo'shma ta'lim dasturlari (double degree, joint degree) doirasida kadrlar tayyorlash.</p> <p>3. Xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan talabalar almashinuvini yo'lga qo'yish.</p>	grantlar, Institutning budjetdan tashqari mablag'lari	2023/2024 o'quv yilidan boshlab	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Institut
18.	Xorijiy ilmiy va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ilmiy-tadqiqot yo'nalishida aloqalarni rivojlantirish.	<p>1. Xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik shartnomalari doirasida yuqori ilmiy salohiyatga ega professor-o'qituvchi va mutaxassislarni Institut doktorant va mustaqil tadqiqotchilariga ilmiy maslahatchi sifatida biriktirish choralarini ko'rish.</p> <p>2. Yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlar bilan qo'shma ilmiy tadqiqotlar olib borishni yo'lga qo'yish.</p> <p>3. Xorijiy ilmiy-tadqiqot markazlari grantlari va xorijiy ilmiy fondlar mablag'larini jalb etish.</p>	Institutning budjetdan tashqari mablag'lari, grantlar	2022/2023 o'quv yilidan boshlab	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Institut

[Andijon davlat chet tillari institutini tashkil etish to'g'risida](#)

[1-ILOVA
Andijon davlat chet tillari instituti faoliyatini tashkil etish bo'yicha ChORA-TADBIRLAR DASTURI](#)

[2-ILOVA
Andijon davlat chet tillari institutini 2026-yilga qadar rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari](#)

[3-ILOVA
Andijon davlat chet tillari institutida tashkil etiladigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari RO'YXATI](#)

19.	Institutda tahsil oluvchi xorijiy talabalar ulushini oshirish.	<p>1. Xorijiy fuqarolarni Institutga jalb qilish bo'yicha ta'lim agentliklari bilan kelishuv imzolash.</p> <p>2. Kelishuv doirasida xorijiy, avvalambor, MDH davlatlarida Institut faoliyatini targ'ib qilish.</p>	Institutning budjetdan tashqari mablag'lari, grantlar	2023/2024 o'quv yili davomida	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Institut
IV. Talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va ularning bandligini ta'minlash					
20.	Institut talabalariga bo'sh vaqtda qo'shimcha daromad topishlariga ko'maklashish.	<p>1. Talabalarga Institutning bo'sh xonalarida til o'rgatish kurslarini tashkil etish va daromad topish uchun sharoit yaratib berish.</p> <p>2. Talabalarga qo'shimcha hunar o'rganishga ko'maklashish maqsadida hunarmand ustalar tomonidan mashg'ulotlar o'tkazishni tashkil etish.</p>	Institutning budjetdan tashqari mablag'lari, homiylik mablag'lari	2022/2023 o'quv yilidan boshlab	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Hunarmand uyushmasi, Institut
21.	Talabalar o'z ustida ishlashi uchun taniqli mutaxassislarni jalb qilgan holda motivatsion tadbirlar o'tkazish.	<p>1. Respublikada va xorijiy davlatlarda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar va notiqar ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>2. Shakllantirilgan ro'yxatga muvofiq seminar, ochiq muloqot va boshqa tadbirlarni, jumladan masofaviy rejimda tashkil qilish.</p>	Institutning budjetdan tashqari mablag'lari, grantlar	2022/2023 o'quv yilidan boshlab	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Institut
22.	Institutda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusni keng joriy etish maqsadida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan markaz tashkil qilish.	<p>1. Markaz nizomi va chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash.</p> <p>2. Institutga tegishli binolarda Markaz uchun beshta muhim tashabbusni qamrab oladigan xonalar ajratish va ularni zarur jihozlar bilan ta'minlash.</p>	Institutning budjetdan tashqari mablag'lari	2022-yil dekabr 2023-yil yanvar	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Institut
23.	Institutning Xonobod shahar, "Kampirrovot" MFY hududida joylashgan dam olish maskanida talabalar uchun seminar, sayyor mashg'ulotlar, yozgi va qishki maktablar tashkil etish.	<p>1. Institutning dam olish maskanida tadbirlar o'tkazish dasturini tasdiqlash.</p> <p>2. Dastur asosida seminarlar, sayyor mashg'ulotlar, yozgi (qishki) maktablar tashkil etish orqali talabalarni jalb etish.</p>	Institutning budjetdan tashqari mablag'lari, homiylik mablag'lari	Har yili avgust oyida Dasturga muvofiq	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi, Institut

Andijon davlat chet tillari institutini tashkil etish to'g'risida

1-ILOVA
Andijon davlat chet tillari instituti faoliyatini tashkil etish bo'yicha ChORA-TADBIRLAR DASTURI

2-ILOVA
Andijon davlat chet tillari institutini 2026-yilga qadar rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari

3-ILOVA
Andijon davlat chet tillari institutida tashkil etiladigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari RO'YXATI

24.	Institutda beshta muhim tashabbus doirasida to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish.	<p>1. Baxshichilik, maqom, estrada, teatr, rassomchilik, sport yo'nalishlarida to'garaklar hamda badiiy havaskorlik jamoalarini tashkil etish va hudud yoshlarini mazkur to'garaklarga jalb etish.</p> <p>2. Institut talabalari o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga qaratilgan sport tadbirlarini tashkil etish.</p> <p>3. Talabalarning badiiy adabiyotlarga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida "Men sevgan badiiy asar" kabi tanlovlarni muntazam tashkil etib borish.</p>	Institutning budjetdan tashqari mablag'lari, homiylik mablag'lari	2022/2023 o'quv yilidan boshlab	Yoshlar ishlari agentligi, Institut
25.	Talabalarni ish bilan ta'minlash maqsadida Institutda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan "Karyera markazi" faoliyatini yo'lga qo'yish.	<p>1. "Karyera markazi" tomonidan Institut ta'lim yo'nalishlariga mos tashkilot va korxonalar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish.</p> <p>2. Hamkor korxonalar va tashkilot vakillariga Institut talabalarini saralab olish uchun tegishli sharoit yaratish.</p>	Institutning budjetdan tashqari mablag'lari, homiylik mablag'lari	2022/2023 o'quv yili davomida	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Institut
26.	Institut talabalarini hududdagi umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalariga biriktirish.	<p>1. Hududdagi umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarini hamkorlik shartnomalarini imzolash.</p> <p>2. Talabalarga doimiy ravishda mazkur ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash va o'z bilimlarini mustahkamlash uchun sharoit yaratish.</p>	-	2023/2024 o'quv yilidan boshlab	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Institut

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2022-yil 31-maydagi
PQ-265-son qaroriga
2-ILOVA

Andijon davlat chet tillari institutini 2026-yilga qadar rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari

T/r	Ustuvor vazifa	Maqsadli ko'rsatkich	Yillar kesimida				O'sish ko'rsatkichi (2023-yilga nisbatan)
			2023-yil	2024-yil	2025-yil	2026-yil	
1.	Milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega professor-o'qituvchilar ulushini oshirish	Asosiy shtatdagi kasbiy fan professor-o'qituvchilari soniga nisbatan, foizda	15	30	40	50	3 baravar

2.	Milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega talabalar ulushini oshirish	Jami talabalar soniga nisbatan, foizda	20	30	45	60	3 baravar
3.	Yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash	Ilmiy salohiyat, foizda	20	25	35	40	2 baravar
4.		Himoya qilinadigan falsafa doktori dissertatsiyalari (PhD) soni	7	11	16	21	3 baravar
5.		Himoya qilinadigan doktorlik dissertatsiyalari (DSc) soni	3	5	7	9	3 baravar
6.		Falsafa doktori ilmiy darajasini olishga talabgor doktorantlar (PhD) soni	4	8	12	20	5 baravar
7.		Fan doktori ilmiy darajasini olishga talabgor doktorantlar (DSc) soni	2	4	6	8	4 baravar
8.		Mustaqil izlanuvchilar soni	5	10	15	25	5 baravar
9.	Professor-o'qituvchilarning ilmiy-uslubiy faoliyati natijadorligini oshirish	Darsliklar soni	2	4	6	8	4 baravar
10.		O'quv qo'llanmalari soni	3	6	9	12	4 baravar
11.		Monografiyalari soni	3	5	7	9	3 baravar
12.		Scopus, Web of Science ma'lumotlar bazasiga kiritilgan maqolalar soni	10	30	55	90	9 baravar
13.		Respublika jurnallarida e'lon qilingan ilmiy maqolalar soni	10	20	30	40	4 baravar
14.		Scopus, Web of Science ma'lumotlar bazasiga kiritilgan har bir maqolaga to'g'ri keluvchi iqtiboslar soni	0,5	1,0	1,5	2,0	4 baravar
15.	Ilmiy-tadqiqot faoliyati va ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish asosida olingan mablag'lar (mlrd so'm hisobida)	Xorijiy ilmiy-tadqiqot markazlari va ilmiy fondlardan olingan mablag'lar	0,1	0,3	0,8	1,0	10 baravar
16.		Davlat grantlari asosida o'tkazilgan ilmiy-tadqiqotlardan olingan mablag'lar	0,1	0,2	0,3	0,5	5 baravar
17.	Xalqaro ilmiy-texnik hamkorlikni kengaytirish	Institut professor-o'qituvchilarini jahonning yetakchi universitetlari va ilmiy markazlariga xizmat safarlariga yuborish	5	8	11	15	3 baravar
18.		Institutga xorijiy olimlarning tashrifi (kamida 1 oyga)	2	3	5	8	4 baravar
19.		Xorijiy talabalar soni	10	20	50	100	10 baravar
20.		Akademik almashinuv dasturlarida ishtirok etuvchi talabalar soni	10	20	50	80	8 baravar
21.		Institut professor-o'qituvchilarining xorijiy olimlar bilan hammualliflikda chop etgan maqolalari soni	5	10	15	20	4 baravar

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2022-yil 31-maydagi
PQ-265-son qaroriga
3-ILOVA

Andijon davlat chet tillari institutida tashkil etiladigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari

RO'YXATI

T/r	Ta'lim yo'nalishi
I. Bakalavriat ta'lim yo'nalishi	
2022/2023 o'quv yilidan	
1.	Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili
2.	Filologiya va tillarni o'qitish: fransuz tili
3.	Filologiya va tillarni o'qitish: nemis tili
4.	Filologiya va tillarni o'qitish: rus tili
5.	Tarjima nazariyasi va amaliyoti: ingliz tili
6.	Tarjima nazariyasi va amaliyoti: rus tili
7.	Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili

8.	Xorijiy til va adabiyoti: rus tili
9.	Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (tillar bo'yicha)
2023/2024 o'quv yilidan	
10.	Tarjima nazariyasi va amaliyoti: fransuz tili
11.	Tarjima nazariyasi va amaliyoti: nemis tili
12.	Filologiya va tillarni o'qitish: arab tili
13.	Filologiya va tillarni o'qitish: koreys tili
14.	Filologiya va tillarni o'qitish: xitoy tili
15.	Filologiya va tillarni o'qitish: yapon tili
II. Magistratura mutaxassisliklari	
2022/2023 o'quv yilidan	
1.	Xorijiy til va adabiyoti (tillar bo'yicha)
2.	Lingvistika (tillar bo'yicha)
3.	Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (tillar bo'yicha)
2023/2024 o'quv yilidan	
4.	Sinxron tarjima (tillar bo'yicha)
5.	Badiiy tarjima (tillar bo'yicha)

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 07/22/265/0457-son)

Andijon davlat chet tillari institutini tashkil etish to'g'risida

1-ILOVA
Andijon davlat chet tillari instituti faoliyatini tashkil etish bo'yicha ChORA-TADBIRLAR DASTURI

2-ILOVA
Andijon davlat chet tillari institutini 2026-yilga qadar rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari

3-ILOVA
Andijon davlat chet tillari institutida tashkil etiladigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari RO'YXATI